

**BOSHLANG'HICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN
TA'LIM ASOSIDA O'QUV-BILUV JARAYONINI TASHKIL
ETISH.**

Olimov Temir Hasanovich

*Osiyo xalqaro universiteti professori, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PHD)*

Ramazonova Dilfuza Ochilovna

Osiyo Xalqaro Universiteti, Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'lim asosida o'quv-biluv jarayonini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda fanlararo aloqalarning o'quvchilar uchun ularning mustaqil fikrlashiga, bilish faolligiga va olgan bilimlarini tushungan holda o'zlashtirishlari haqida tahlil qilinadi. Integratsiyalashgan yondashuvning dars jarayonidagi usullari, uning qo'llanishi va dars jarayonidagi samarali jihatlari misollar bilan asoslab beriladi.

Natijalarimiz asosida shuni ko'rishimiz mumkinki, integratsiyalashgan ta'lim jarayoni nafaqat o'quvchilarni bilib olishlari da balki, ularning o'quv motivatsiyasini oshirishda, , tafakkur jarayonini faollashtirish da va egallagan bilimlarni amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: integratsiyalashgan ta'lim, fanlararo aloqalar, predmetlararo bog'lanish, o'quv-biluv jarayoni, boshlang'ich ta'lim, bilish faolligi, mustaqil fikrlash, o'quv motivatsiyasi, tafakkur jarayoni, ta'lim samaradorligi, kognitiv rivojlanish, metodik yondashuv, didaktik imkoniyatlar, amaliy ko'nikmalar.

Аннотация: В данной тезисной работе освещаются вопросы эффективной организации учебно-познавательного процесса в начальных классах на основе интегрированного обучения. В исследовании анализируется влияние межпредметных связей на развитие самостоятельного мышления учащихся, их познавательной активности и осознанное усвоение полученных знаний. Методы интегрированного подхода, особенности его применения в учебном процессе, а также его эффективные стороны обоснованы на конкретных примерах.

На основе полученных результатов можно сделать вывод о том, что интегрированное обучение способствует не только более глубокому усвоению знаний учащимися, но и повышению их учебной мотивации, активизации мыслительной деятельности, а также развитию навыков практического применения приобретённых знаний.

Ключевые слова: интегрированное обучение, межпредметные связи, междисциплинарная интеграция, учебно-познавательный процесс, начальное образование, познавательная активность, самостоятельное мышление, учебная мотивация, мыслительная деятельность, эффективность обучения, когнитивное развитие, методический подход, дидактические возможности, практические навыки.

Annotation. *This thesis addresses the issues of effectively organizing the educational and cognitive process in primary classes based on integrated learning. The study analyzes the impact of interdisciplinary connections on students' independent thinking, cognitive activity, and their conscious understanding and assimilation of acquired knowledge. The methods of the integrated approach, its application in the classroom process, and its effective aspects are substantiated with relevant examples.*

Based on the obtained results, it can be concluded that integrated learning not only enhances students' acquisition of knowledge, but also increases their learning motivation, activates their thinking processes, and develops their skills in applying acquired knowledge in practice.

Keywords: *integrated learning, interdisciplinary connections, cross-curricular integration, educational and cognitive process, primary education, cognitive activity, independent thinking, learning motivation, thinking process, learning effectiveness, cognitive development, methodological approach, didactic possibilities, practical skills.*

Asosiy qism. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarning eng muhim vazifalaridan biri olayotgan bilimlarini yaxshi va samarali o'rganishdan iborat. Fanlararo integratsiyalash dars jarayonini tashkil etish asosida o'quvchilarga mavzuni yaxshiroq tushunishiga yordam bergan bo'lamiz. Bu orqali ularning fikrlash qobiliyati, bilish va bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalari rivojlanadi.

Integratsiyalashgan ta'lim — bu bir nechta fanlarni bog'langan holda bir vaqtda umumlashtirib o'tish jarayonidir. Boshlang'ich sinflar uchun bu quyidagicha samara beradi: Ya'ni, bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirishlari, mustaqil fikrlay olishlari va amalda qo'llash ko'nikmalarini shuningdek, o'qituvchilar uchun o'quvchilarni darsga qiziqtirishlarida o'z samarasini ko'rishimiz mumkin.

Masalan, ona tili darsida o'rganilgan mavzularni matematika yoki tabiiy fanlar darsiga bog'lash mumkin.

Matematika + Ona tili (sonlar va so'zlar)

Matematika darsida mavzu: 1–10 gacha bo'lgan sonlar va qo'shish/ayirish.

Ona tili darsida mavzu: Sonlar bilan gap tuzish, raqamlarni so'z bilan yozish.

Integratsiya:

O'quvchilarga misol beriladi:

" $3 + 2 = ?$ "

Keyin ular bu misolni so'z bilan yozadilar: "Uch va ikki yig'indisi besh."

Shuningdek, o'quvchilar o'zlari misol tuzib, so'z bilan ifodalaydi.

Natija: Matematik hisoblash va ona tili ko'nikmalari bir vaqtda rivojlantiradi. Yoki ona tili va tabiiy fan darslarini oladigan bo'lsak,

Tabiiy fanlar + Ona tili

Tabiiy fanlar darsida mavzu: "Hayvonlar va ularning yashash joylari"

Ona tili darsida mavzu: "Gap tuzish va tavsiflovchi so'zlar"

Integratsiya:

O'quv faoliyati:

O'quvchilarga hayvonlar suratlari ko'rsatiladi: sher, quyon, baliq, qush va boshqalar.

Ular hayvonlarni tabiatshunoslik nuqtai nazaridan tavsiflaydi:

"Sher – o'rmonlarda yashaydi, katta va kuchli hayvon."

"Baliq – suvda yashaydi, suzadi."

Til ko'nikmasi bilan bog'lash:

O'quvchilar tavsiflarni to'liq gap shaklida yozadilar yoki aytadilar:

"Men quyonni ko'rdim. U juda tez yuguradi."

Tavsiflovchi so'zlar va sodda gaplarni ishlatish mashqlari qilinadi.

Natija:

O'quvchilar tabiiy fanlarni tushunadi (hayvonlarning yashash joyi, xususiyatlari).

Ona tili orqali gap qurish va so'z boyligi rivojlanadi.

Bilimlarni yozma va og'zaki ifodalash ko'nikmalari shakllanadi. Bu kabi usullardan foydalanish o'quvchilarga mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Xulosa. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'lim jarayoni orqali o'quv-biluv jarayonini tashkil etish o'quvchilarning bilimlarini tog'ri va tushunarli o'zlashtirishlariga, mustaqil fikrlash qobiliyati va tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Fanlararo bog'lanish (ona tili va matematika, ona tili va tabiiy fanlar kabi) darslarni qiziqarli, tushunarli va o'quvchilarni o'ziga jalb qilishi bilan ham muhimdir. Shu orqali o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llashni o'rganadi.

Integratsiyalashgan yondashuvning metodik asoslari, interfaol usullar orqali darsni tashkil qilish va dars jarayonidagi amaliy misollar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Natijada o'quvchilar nafaqat fanlarni yaxshiroq o'zlashtiradi, balki fikrlash qobiliyati, tahlil qilish ko'nikmasi va ijodiy yondashish qobiliyatlari ham shakllanadi.

Shuning uchun boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limni qo'llash ta'lim jarayonida eng muhim qismi jarayoni bo'lib, o'quvchilarning rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xasanov, O. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: “Sharq”, 2018.
2. Qodirov, T. Integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: “Fan va Ta'lim”, 2020.
3. Axmedov, S. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash metodikasi. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2017.
4. Yo'ldoshev, M. Pedagogik innovatsiyalar va fanlararo aloqalar. – Toshkent: “Ilm-fan”, 2019.
5. Karimova, N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish faoliyatini rivojlantirish. – Toshkent: “Ta'lim va Rivojlanish”, 2021.
6. Ismoilov, A. O'quv jarayonini tashkil etish va integratsiyalashgan yondashuvlar. – Toshkent: “Fan va Ta'lim”, 2020.
7. Sobirova, L. Boshlang'ich ta'limda interfaol usullar. – Toshkent: “Pedagogika”, 2018.
8. Raxmonov, B. Boshlang'ich ta'limda o'quv-biluv jarayonini tashkil etish. – Toshkent: “O'zbekiston pedagogikasi”, 2019.
9. Tursunov, F. Fanlararo integratsiya va ta'lim samaradorligi. – Toshkent: “Ta'lim”, 2020.
10. Axmedova, D. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish. – Toshkent: “Pedagogik Innovatsiyalar”, 2021.